O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
<b>Raxmanov Ilhom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике.....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	



Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1298
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
<b>Кучаров Абдор Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи</b>	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi .....	1310
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b>	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
<b>Davronov Saxobiddin Faxriddinovich</b>	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili .....	1324
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni .....	1334
<b>Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich</b>	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective .....	1338
<b>Kholiyorova Shokhista</b>	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari .....	1341
<b>Taniyev Ahmadjon Bahromovich</b>	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	1347
<b>Masharipov Maxmud Bekturdiyevich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni .....	1352
<b>O. Jono'zoqov</b>	
Sanoatda resurs tejamliligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish .....	1358
<b>Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li</b>	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation .....	1364
<b>Fayzieva Nargiza Rabimovna</b>	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni.....	1375
<b>Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi</b>	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari.....	1380
<b>Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich</b>	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
<b>Xalikov Suyun Ravshanovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar .....	1394
<b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich</b>	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
<b>Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li</b>	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash .....	1411
<b>Maxkamboyev Komil Abdulkakovich</b>	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar .....	1416
<b>Xo'jaqulova Nigora Rustamovna</b>	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
<b>Raximov Furqat Jalolovich</b>	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari.....	1431
<b>Alimbayeva Sevara Alimbayevna</b>	



# XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISH ORQALI MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Alimbayeva Sevara Alimbayevna**

Davlat xaridlarini rivojlantirish va monitotingi shu'bası  
yetakchi inspektori, mustaqil tadqiqotchi



**Annotatsiya:** Maqolada mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning amaliy holati tahlil qilingan. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy investitsiya, innovatsiya, investitsiya loyihasi, mamlakat iqtisodiyoti, innovatsion kredit, kredit portfeli.

**Abstract:** The article analyzes the practical situation of attracting foreign investment into the country's economy. Practical proposals and recommendations for the development of the country's economy by attracting foreign investment are presented.

**Key words:** foreign investment, innovation, investment project, country's economy, innovative loan, loan portfolio.

**Аннотация:** В статье анализируется практическая ситуация привлечения иностранных инвестиций в экономику страны. Представлены практические предложения и рекомендации по развитию экономики страны за счет привлечения иностранных инвестиций.

**Ключевые слова:** иностранные инвестиции, инновации, инвестиционный проект, экономика страны, инновационный кредит, кредитный портфель.

## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy qilish hamda iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashda investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar beqiyos o'rin tutadi. Investitsiyalarga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bugungi kunga kelib, mamlakatimizdagi investitsion faoliyatning rivojlantirilishiga olib keldi. Bu borada erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng va atroflicha tahlili, shu asosdagi muhim amaliy xulosalar, kelgusida e'tibor qarati-shimiz lozim bo'lgan eng dolzarb masalalar orasida mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va rivoj-lanish dasturlarini belgilashda, albatta, asosiy e'tibor xorijiy investitsiyalarga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvat-larini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim", deb ta'kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida oxirgi yillarda tijorat banklari tomonidan kreditlash hajmi bir necha o'n marotaba ko'paydi. Biroq, bizga ma'lumki rivojlanish va taraqqiyot jarayoni shiddatli raqobat tus olib, muammolar acocida mukammallashib boradi. Banklar tomonidan innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalarning loyihalarini moliyalashtirishda, ularni likvidligi past degan baho berilmoqda. Bu korxonalarga bank kreditlarini ajratishda muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish yo'lla-rini, yangi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish usullarining ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan chuqur tadqiq etish muhim vazifa hisoblanadi.





## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Innovatsiya” atamasi (lotincha “innovato” soʻzidan olingan) yangilash va yaxshilash, degan maʼnoni anglatadi. Innovatsiya mazmunida yangi deb qabul qilingan madaniyatning moddiy (nomoddiy) qiymati sifatida anglangan.

Iqtisodchi olimlarning fikrlariga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak quyidagi xorijlik olimlar oʻzlarining turlicha talqinlarini keltirib oʻtgan, xususan:

I. L. Balabanov “innovatsiya” bu – nazorat, rejalashtirilgan usuli, yangi texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat koʻrsatish, boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapital kiritishdan olingan natijani namoyon etadi deb tushuntirgan;

A. B. Borisov “innovatsiya” bu texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkil qilish shakllarini joriy etishga qaratilgan ijobiy faoliyat natijasini anglatadi, deb hisoblaydi;

Oʻzbekistonlik iqtisodchi-olimlardan R. Gimush va F. Matmurodovlar “innovatsiya” deganda yangilik va yangilik kiritish degan maʼnoni anglatishini aytib oʻtganlar;

B. E. Toshmurodova va N. Jiyanovalar fikriga koʻra “innovatsiya” tushunchasi oʻz ichiga nafaqat texnik izlanishlarni, balki korxona ishi usulidagi yangiliklarni ham olishini aytib oʻtganlar:

- Jahon banki innovatsiyani texnologiyalarni yoki jamiyatda nimadir yangi narsani amaliyotda qoʻllanilishi deb tushuntiradi (World bank report, 2010).
- G. Popov innovatsiya faoliyatini tugallagan ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini yoki takomillashgan texnologik jarayonda amalga oshiriluvchi, mahsulot ishlab chiqarish uchun erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarni olish tushuntiradi.

Soʻnggi yillarda butun jahon miqyosida sodir boʻlayotgan moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida innovatsion loyihalar va innovatsion faoliyatning ahamiyati yanada oshdi. Bu oʻz navbatida mamlakatimizda banklarning innovatsion faoliyatida va umuman davlatning innovatsion siyosatida ijobiy oʻzgarishlar vujudga kelishiga olib keldi.

Mazkur soha vakillarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida mamlakatda tijorat banklari tomonidan innovatsion loyihalarni kreditlash, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida ularni rolini oshirish bugungi kunda dolzarb boʻlib turibdi.

Shu oʻrinda, iqtisodchi olim R. X. Karlibayevaning fikriga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak, iqtisodiy islohotlar sharoitida mamlakat milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash, mahsulot ishlab chiqarish surʼatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni jonlantirishni talab qilishni keltirib oʻtgan.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda yangi ishlab chiqarishni tashkil etishda bank kredit resurslarini jalb qilish dolzarb masaladir. Chunki, yangi ishlab chiqarishni tashkil etish va ularni amalga oshirishda yirik moliyaviy imkoniyatlar talab etiladi. Mazkur moliyalashtirish masalasining yechimi korxonalarga kreditlar berish bilan taʼriflanadi.

Oʻzbekistonda innovatsion gʻoyalarini kreditlashga muhtoj korxonalar soni oxirgi yillarda tobora ortib bormoqda. Bunda kredit resurslari aylanma vositalar harid qilishga emas, balki strategik rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishga yoʻnaltirilishi nazarda tutiladi. Maʼlumki, bu holda joylashtirilgan resurslar yuqori riskli va aksariyat hollarda tijorat loyihalarini amalga oshirish natijasida shakllanuvchi daromadlar hisobidan qaytib keladi.

Bugungi kunda tijorat banklari kredit siyosati va korxonalarni kreditlash amaliyotidagi kamchiliklar, jumladan, respublikada banklarning kreditlash tartibi hanuzgacha jahon standartlari va mijozlarning talablariga javob bera olmasligi, rivojlangan davlatlar tijorat banklarining kreditlash amaliyotining mamlakat tijorat banklariga tatbiq etilmayotganligi mazkur maqola mavzusining tanlanishiga sabab boʻldi. Shu sababli, tijorat banklarining bugungi kundagi korxonalarni kreditlash amaliyotidagi mavjud muammolarini aniqlash, xorijiy banklar kreditlash amaliyotining ustuvor tomonlarini amaliy tahlillar asosida oʻrganish, ularning bu sohadagi ilgʻor tajribalari, Oʻzbekiston tijorat banklari kreditlash amaliyotida joriy qilish yuzasidan aniq asoslanagan ilmiy takliflarni taqdim etish koʻzda tutilganligi ushbu ilmiy maqolaning dolzarbligini namoyon etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida innovatsion loyihalar bilan faoliyat koʻrsatuvchi korxonalarning mamlakat iqtisodiyotidagi oʻrni, rivojlanishi, oʻziga xos xususiyatlari va unda aholi ish bilan bandligini aniqlash boʻyicha oʻrganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Iqtisodiyotning barqaror surʼatlarda rivojlanish omillaridan biri innovatsion loyihalarni moliyalashtirishidir. Ushbu jarayonda aholi ish bilan bandligining oshib borishi va bu koʻrsatkichlarni solishtirma tahlil qilish, shu asosda tegishli tavsiyalar ishlab chiqishi bilan belgilanadi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning investitsiyaga bo'lgan talabi, investitsiyaga yunaltiriladigan mablag'larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqazo etadi. Chunki qo'yilgan kapital mablag'idan samarali foydalanish natijasida ko'proq foyda olish mumkin. Investitsion loyihalarni boshqarish va baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning investitsiya faoliyatini rivojlantirish va ularni moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy davlatlar moliyalashtirish tajribalarini o'rganish takomillashtirib borish va ular amaliyotidagi ijobiy yutuqlardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.


Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalarning o'zlashtirilishini samaradorligini oshirishda investitsion muhit bilan bog'liq moliyaviy masalalarni va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishdagi muammolar tizimli tartibda hal etib borilmoqda.

Investitsion faoliyat strategiyasining uzoq davr uchun amal qilishi, investitsion resurslarning umumiyligi, tarmoq va korxona doirasida investitsiyalarni joylashtirishning davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalaniladigan ta'sir yetuvchi usullar, vositalar va ta'sir kuchlariga qarab o'zgarib boradi. U jarayonning tarkibiy yo'nalishi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- investitsion faoliyat strategiyasining taktik va strategik boshqaruv mezonlariga muvofiqligi;
- investitsion faoliyat boshqaruv omillarining maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liq;
- menejment resurslari, tanlangan boshqaruv uslubi qo'llanilgan va maqsadga yerishilgan holda foydalaniladigan moddiy, texnik, moliyaviy, ijtimoiy, institutsional va boshqa manbalar.

Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni jadal sur'atlarini ta'minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishda puxta o'ylangan investitsiya siyosatini muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, investitsiyalar iqtisodiyot taraqqiyatning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalar, texnik va texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni rahbatlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni ta'minlaydi. Masalaning nechog'lik muhim ekanligini yillar davomida investitsiya oqimlarini muntazam oshirib borishga qaratilgan investitsiya siyosatini yuritilayotganligida ko'rish mumkin.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda innovatsion loyihalar asosida faoliyat ko'rsatadigan korxonalarning bank kreditlariga bo'lgan talabi rivojlanayotgan davlatlarda birmuncha yuqori hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda o'rtacha 40 foiz korxonalarning kredit olishga ehtiyoji mavjud bo'lsa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga ushbu ko'rsatgich 45 %dan 60 %gacha bo'lganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga kreditlash jarayonida garov talab etilishi rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 60 %dan yuqori bo'lsa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida o'rtacha 80 %dan yuqoriligini ko'rsatish lozim (1-rasm).



1-rasm: Jahonda innovatsion loyihalar asosida faoliyat ko'rsatadigan korxonalarning bank kreditlariga bo'lgan talabi, foizda


Manba: Jahon banki 2022-yilgi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Yuqoridagi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, korxonalarining innovatsion loyihalarini kreditlash aholi-ning turmush darajasini oshirish, aholi bandligi, ularning iqtisodiy faolligini oshirish kabi aniq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilishi lozim. Dunyo amaliyotida sinalgan investitsion kreditlashning tajribasidan O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishdagi bozorning shakllanayotganligi sharoitida uning ijobiy tomonlaridan foydalanish nazariy va amaliy jihatdan muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlarini misol qilib olganda Belorussiyada 2007-yilda "Innovatsion rivojlanish davlat dasturi"-ning qabul qilinishi bilan ilmiy ishlanmalarning tijoratlashtirilishi respublikada innovatsion faoliyatning rivojlani- shiga olib keldi. Mamlakat innovatsion infratuzilmasi ushbu sohadagi maslahat xizmatlari, axborot va tashkiliy yordam ko'rsatuvchi 80 dan ortiq kompaniyalarni tashkil qiladi. Turli texnoparklar, ikkita innovatsiya markazi, o'n birta texnologiyalar transferti firmalari, uchta texnologiyalarni uzatish xalqaro markazlari va boshqa innovatsion infratuzilma tashkilotlari faoliyat yuritadi.

Belorussiyada innovatsiyalarni moliyalashtirish asosan korxonalar o'z mablag'lari va ayniqsa budget mablag'lari asosida amalga oshiriladi. Jami xarajatlarning deyarli 70 foizi bank kreditlari va budgetdan tashqari jamg'armalar mablag'i hammasi bo'lib bir foizni ham tashkil qilmaydi. Bunga albatta innovatsiyalar sohasidagi investitsiya loyihalari yuqori riskli bo'lishi va qaytimning kelish ehtimoli nisbatan pastroq bo'lishi sabab- chidir. Shuning uchun Belorussiyada venchurli moliyalashtirishni keng ko'lamda rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda (2-rasm).



2-rasm: Belorussiya Respublikasida innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari tuzilmasi

Manba: Belorussiya Respublikasida statistik to'plami, 2022-yil.

O'zbekistonda xam iqtisodiy strategik maqsadlaridan kelib chiqib investitsiya loyihalarini boshqarish va ularni rivojlanishiga yo'l ochib berilmoqda. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 202,0 trln. so'm o'zlashtirilganligi bu boradagi fikrimizni asosi hisoblanadi.

1-jadval: 2022-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalarning tuzilmaviy tarkibi

Markazlashgan investitsiyalar 39310,2 mlrd.so'm	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar 202 000,1 mlrd.so'm	Markazlashmagan investitsiyalar 162 689,9 mlrd.so'm
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar 22 467,1 mlrd.so'm	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar 86 647,0 mlrd.so'm	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar 64 179.9 mlrd.so'm

Manba: www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari asosida muallif toonidan tuzildi.

2022-yilda investitsion faollikni pasayishi kuzatilingan bo'lib, 2021-yilga nisbatan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 91,8 foizini tashkil etdi. 2022-yilda 202,0 trln. so'm asosiy kapitalga investit- siyalar o'zlashtirildi. Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 39310,2 mlrd. so'm yoki jami investit- siyalar hajmining 19,5 foizi va 2021-yilga nisbatan 8,0 foizga kam asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 162689,9 mlrd. so'm yoki jami hajmdan



80,5 foizda investitsiyalar o'zlashtirilgan. 2022-yilda korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan 51911,3 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 25,7 foizini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan esa 18077,8 mlrd. so'm yoki 8,9 foiz o'zlashtirildi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan 28740,5 mlrd. so'm o'zlashtirilib, 2022-yilga nisbatan 5,3 foizga kamayib, jami investitsiyalarning 14,2 foizni tashkil etdi. 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8 milliard 100 million dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o'zni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o'rnini to'ldirish imkoniyatiga ega.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatidan ko'zlangan eng asosiy maqsad xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxonalarning mahsulot yoki xizmatlarini eksportga yo'naltirishdan iborat. Buning uchun mahalliy korxonalarimiz negizida tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini yangicha tashkil etish, ulardagi hissaboy ishtirok etish, ya'ni aksiyalar ulushiga asosan tomonlarning qaror qabul qilishida ishtirok etish, eng asosiysi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning mahsulot yoki xizmatlarini tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga erishish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha yuqoridagi tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi milliy iqtisodiyotga investitsiya loyihalarni faol jalb etilishiga va investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

Xorijiy investorlarni jalb qilishda turli usullarning qo'llanilishi o'zining samarali mevasini hozirning o'zidanoq bermoqda. Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston o'ziga xos investitsion iqlim yarata oldi hamda bunga mamlakatning resurslarga boy ekanligi va ularni qazib chiqarish, qayta ishlash borasida korxonalarni tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiyalash bo'yicha berilayotgan keng imkoniyatlar xorijlik investorlarni kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuningdek, muayyan bir tarmoq bo'yicha investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda:

- fan, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga qilinadigan investitsiya qo'yilmalari miqdori va sifatini oshirish;
- bazaviy innovatsiyalarni egallashga asoslangan yo'naltirilgan innovatsiya-investitsiya strategiyalarini rag'batlantirish;
- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi talab etiladigan mavjud ishlab chiqarishlarning texnologik darajalarini, ilmiy imkoniyatlarini, ixtirolarni o'rganish va baholash;
- qulay ishbiarmonlik muhitining shakllantirilishini jadallash-tirish, chunki u o'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi samaradorligini oshirish lozim.

Fikrimizcha, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishda quyidagi vazifalarning amaliy ijrosini ta'minlash maqsadga muvofiq:

- investorlarning qo'yilmalarini davlat tomonidan sug'urtalash, hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini baholashga yo'naltirilgan dasturiy platformalarni shakllantirish;
- hududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o'zlashtirishda soliq pereferensiyalarini, hududda qolayotgan soliq tushumlari ulushini o'sishida keng imtiyozlar berish bo'yicha normativ bazani takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni sanoat tarmoqlarining ichki tarkibini qayta qurish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ilg'or texnologiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga yo'naltirish vazifalarini amaliy ijrosini ta'minlash;
- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish, investitsion faoliyatga oid qonunchilikni unifikatsiyalashda raqamli investitsion xizmatlar tizimini shakllantirish;
- investitsiya loyihalari uchun xalqaro texnologiyalar transfertini ta'minlovchi davlat-xususiy sherikchilik mexanizmidan foydalanish, investitsion loyihalarni boshqarishning integrallashgan tizimini joriy etishda loyiha risklarini samarali boshqarish tizimini optimallashtirish va boshqalar.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Strategik rivojlanish agentligi faoliyati muhokamasi yuzasidagi yig'ilishi. 12.01.2022-y.
2. O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgust, PF-5495-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-sonli Qarori.
4. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 <https://www.researchgate.net/publication/237244956>.
5. Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. – М.: ОАО «Издательство «Экономика», 1999. –662с.
6. Чараева М.В. Финансовое управление реальными инвестициями организаций: учебное пособие / М.В. Чараева. Москва: Альфа-М, 2014. 240 с.
7. Усковао Т.В. Роли инвестиций в обеспечении устойчивого экономического роста. Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз 6 (30) 2013., 45-59 стр.
8. Прусак М.М. Стратегия региона: инвестиции в экономику // Финансы. 2001. –№ 1. –С. 6-8.
9. Karimov N.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
10. Нодирханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. - T.: "Fan va texnologiya", 2011. 184 б.
11. G'ozibekov D, Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: "Iqtisod-Moliya". 2007, –B.92
12. Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari. Ilmiy-ommabop risola. –T.: "Iqtisod-Moliya" 2019., 40 b.
13. Umarov F.U. Innovatsion-investitsiya faol tadbirkorlikning muhim omili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar- fevral, 2018-yil.
14. Burxanov A. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish-milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning asosiy omili. Biznes-Ekspert, 2018-yil. – №10., 7-13 bet.
15. Bozorov R.H. O'zbekistonning global indekslarda ishtirokini keng ta'minlash – investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim omili. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. –№ 4-5, avgust-oktyabr, 2018-yil.
16. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.